

OLDI-SOTDI SHARTNOMASI

Keyingi o'rinlarda "Sotuvchi" deb ataladigan "GRAND WOODWORKERS" MCHJ kompaniyasi nomidan U.Yuldashev orqali bir tomondan, keyingi o'rinlarda "Sotib oluvchi" deb ataladigan Urganj shahar 96-sonli maktab-internati ikkinchi tomondan N.Mamatova quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

- 1.1. "Sotuvchi" o'ziga tegishli tovarni "Xaridor"ga mulk topshirish, "Xaridor" esa ushbu tovarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.
- 1.2. Tovarning haqiqiy miqdorlar; Ushbu shartnoma 1.3 qismidagi № 1 jadvalida ko'rsatilgan.
- 1.3.

| № | Maxsulot turi | O'l.bir | Miqdori | Narhi QQS bilan | Umumiy qiymati QQS bilan |
|---|--|---------|---------|-----------------|--------------------------|
| 1 | Stol palatniy material metal karkas i LDSP | sht | 14 | 450000 | 6 300 000 |
| 2 | Stul metal karkas | sht | 140 | 171000 | 23 940 000 |
| | Jami: | | | | 30 240 000 |

- 1.4. Tovarning umumiy bahosi 30 240 000 (O'ttiz million ikki yuz qirq ming) so'mni tashkil etdi.
- 1.5. Shartnomaning 30 240 000 (O'ttiz million ikki yuz qirq ming) so'm byudjet mablag'i hisobidan 0,00 so'mi byudjetdan tashqari mablag' hisobidan amalga oshiriladi.

2. TO'LOV SHARTLARI

- 2.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov kuyidagi tartibda amalga oshiriladi;
"Xaridor" "Sotuvchi"ning xisob-raqamiga shartnomada ko'rsatilgan mahsulot miqdori summasining 30 foizini oldindan qolgan 70 foizi mahsulot to'liq etkazib berilgandan keyin o'tkazishni o'z zimmsiga oladi.
- 2.2. To'lov shakli: Pul sotuvchining hiso raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 2.3. Sotib oluvchining huquqlari:

- tovar to'g'risida zarur va to'g'ri axborotni qonun hujjatlarida belgilangan yoki chakana savdoda qo'yiladigan talablarga muvofiq holda berishni;
- shartnoma tuzilgunga qadar tovarni ko'zdan kechirish, o'z oldida tovarning xossalarini tekshirishni yoki tovardan qanday foydalanishni ko'rsatishni;
- sotib olayotgan tovarni o'ziga mulk qilib topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatdagi tovarni topshirishni;
- uchinchi shaxslarning huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirishni;
- tovarni shartnomada ko'rsatilgan assortimentda topshirishni;
- tovarni mansub ashyolari va tegishli hujjatlari bilan birga topshirishni talab qilish.

3. TARAFLAR HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.

- 3.1. "XARIDOR"ning huquqlari:
- 3.1.1. Zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni, ekspertlarning yo'zma xulosalarini so'rash va olish, mutahassislar bilan maslahatlashish
- 3.1.2. "Sotuvchi"ning iqtisodiy ahvoli, nufuzi va ishchanlik jihatlarini hususidagi ma'lumotlarni etkazishni "Sotuvchi"dan talab qilishga haqlidir.
- 3.1.3. Ushbu shartnoma asosida belgilangan mahsulotlarni o'z vaqtida va sifatli mahsulotni etkazishni "Sotuvchi"dan talab qilishga;
- 3.1.4. "Sotuvchi"dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida etkazilgan zararni talab qilishga;
- 3.2. "Sotuvchi"ning huquqlari;
- 3.2.1. Zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni, ekspertlarning yozma hulosalari so'rash va olish, mutahassislar bilan maslahatlashish;
- 3.2.2. "Xaridor"ning iqtisodiy ahvoli, nufuzi ishchanlik jihatlarini xususidagi ma'lumotlarni to'lash;

3.2.3. Ushbu shartnoma asosida belgilangan maxsulotlar uchun oldindan haq to'lashni va amaldagi shartnoma va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hiso-kitoblarni amalga oshirishni "Sotuvchi"dan talab qilishga

3.2.4. "Xaridor" dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida etkazilgan zararni talab qilishga haqdir.

3.3. "Sotuvchi"ning majburiyatlari

3.3.1. Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan mahsulotni "Xaridor"ga shartnoma imzolangan keyingi 10 bank ish kuni ichida berishga;

3.3.2. O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi"to'g'risidagi Qonin, "Fuqarolik kodeksi" va xo'jalik shartnomaliri to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga rioya etishi;

3.3.3. Shartnomada korsatilgan talablarga rioya qilgan holda o'z vaqtida "Xaridor"ga mahsulotni etkazib berish

3.3.4. Tegishli darajada sifatli mahsulot yuborilganligi to'g'risida bildirish (habarnoma)olgandan so'ngi sifatli bo'lmagan mol-mulk 1 ish kuni ichida almashtirib berish yoki ishbu shartnomaning 1.3-bandiga asosan sifatli bo'lmagan mahsulot bahosini qaytarib berish.

3.4

. "Xaridor" majburiyati

3.4.1. Mahsulotni qabul qilish dalolatnomasini tuzgan holda ushbu shartnomada va qonun hujjatlarini ng belgilangan butlash tartibiga soniga sifatiga qarab muddatida maxsulotni qabul qilib olish

4. TARAFLAR JAVOBGARLIGI

4.1. Tovarlarini yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarini yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

4.2. Agar yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, yetkazib beruvchidan (pudratchidan) sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar va xizmatlar) qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar (ishlar va xizmatlar) haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berganlik uchun jarima yetkazib beruvchidan (pudratchidan) akseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.3. But bo'lmagan tovarlar yetkazib berilgan taqdirda sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarini butlab berishni talab qilishga haqli. Yetkazib beruvchi sotib oluvchining (buyurtmachining) talabini olgan paytdan boshlab, agar taraflarning kelishuvida o'zga muddat belgilangan bo'lmasa, o'n besh kunlik muddat ichida tovarlarini butlab berishi shart, bundan buyon tovarlar butlab berilgunga qadar ularning haqini to'lashdan bosh tortishga, agar tovarlarning haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan summalar qaytarilishini talab qilishga haqli, yetishmayotgan qismlar qiymatini qo'shgan holda, yetkazib beruvchidan but bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli, Tovarlarini yetkazib beruvchi belgilangan muddatda tovarlarini butlab bermasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) but bo'lmagan tovarlarini qaytarib berishga hamda but bo'lmagan tovarlarini but tovarlarga almashtirishni talab qilishga haqlidir.

4.4 Tovarlarini tanlab olmaslik, shuningdek yetkazib beruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrd) ularni yetkazib berganda tovarlarini olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi yetkazib beruvchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, yetkazib beruvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

4.5 Yetkazib berilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

4.6 Tomonlar mazkur shartnoma talablarini buzgan taqdirda "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"ga Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida javobgarlikka tortiladi

5. TOMONLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MAJBURIYATLARI

5.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

5.2. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga

kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

5.3. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin

6. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralari ko'radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita iqtisodiy sudga murojaat qilishga haqlidir.

6.3. Tomonlar iqtisodiy sudiga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

7. FORS-MAJOR

7.1. Fors-major natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari kelib chiqsa va bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 fevralidagi 63-sonli "Yengib bo'lmay kuch (fors-major) holatlarining mavjudligini tasdiqlash mexanizmini kiritish to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan shartlarda tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilishidan ozod etiladi.

8. BOSHQA SHARTLAR

8.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

9.1. Mazkur shartnoma g'aznachilik bo'linmalarida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022yil "31" dekabrgacha amal qiladi.

9.2. Shartnomaning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

9.3. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

10. TARAFLARNING REKVIZITLARI

"GRAND WOODWORKERS" MCHJ

Urganch shahar 96-sonli maktab-internati

Manzil: Urganch tuman Yuqori durman qishlog'i

Mergan ovul MFY

tel: 97-857-00-89

x/p: 2020800005546734001

Bank: Toshkent sh AT "ALOQA BANK" bosh ofisi

INN: 309708305

MFO: 00401

U. Yuldashev

Manzil: Urganch shahar Mustaqillik 31 uy

Shxr: 100021860334017092400075001

INN: 201943062

OKNX: 85310

Moliya vazirligi g'aznachiligi

x/r: 23402000300100001010

XKKM Markaziy bank Toshkent sh

INN: 201122919 MFO: 00014

N. Mamatova



| | | |
|---|---|-----------------------------------|
|  | Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang. | |
| | Imzolovchi F.I.SH. | NAZOKAT MAMATOVA SHARIPBAYEVNA |
| | Imzolangan sana | 19.12.2022 09:07 |
| | Hujjat kodi | LQ1776400056 |
| | Hulosa kodi | FW1278620204 |

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

FW1278620204

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **OLDI-SOTDI SHARTNOMASI**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Urganch shahridagi 96-son kar (eshitmaydigan) bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat maktab internati tomonidan 16.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Urganch shahar
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:**



K.R.ATADJANOV

16.12.2022